SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAKAYEVA NILUFAR ABDULLOYEVNA

HARUKI MURAKAMI ASARLARIDA “SAN’AT” FREYMINING IFODALANISHI (muallif romanlarining yaponcha matnlari va ularning ruscha tarjimalari asosida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 82-821+821.512

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bakayeva Nilufar Abdulloyevna
Haruki Murakami asarlarida “san’at” freymining ifodalanishi
(muallif romanlarining yaponcha matnlari va ularning ruscha tarjimalari asosida) .3

Бакаева Нилюфар Абдуллоевна
Особенности репрезентации фрейма «искусство» в романах Харуки
Мураками (на материале японских текстов романов автора и их русских
переводов).....29

Bakaeva Nilufar Abdulloevna
Expression of the representation of the frame “art” in the works of haruki
murakami (based on the Japanese texts of the author's novels and their Russian
translations).....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 62

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAKAYEVA NILUFAR ABDULLOYEVNA

HARUKI MURAKAMI ASARLARIDA “SAN’AT” FREYMINING IFODALANISHI (muallif romanlarining yaponcha matnlari va ularning ruscha tarjimalari asosida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Fil3468 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Samarqand davlat chet tillar instituti Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Safarov Shahriyor Safarovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Umurova Guzal Xotamovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Xalmurzayeva Nadira Tashmurzayevna filologiya fanlari doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy Daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “23” oktabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (65977-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “10” oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “10” oktabr dagi №52-raqamli reyestr bayonnomasi)

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida inson ongida axborot va bilimni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarini izohlashda kognitiv yondashuvning imkoniyatlari kengayib, freym va konsept kabi kognitiv birliklarning tuzilishi, mazmuni va badiiy matndagi voqelanishini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar freym bilimning strukturasi va uni ifodalash vositasi sifatida turlicha talqin qilinayotgan bo‘lsa-da, yozuvchining individual bilimlari, konseptual-semantik pozitsiyasi va madaniy kodi bilan bog‘liq holda freymning badiiy matnda modellashtirilishi, uning tarkibiy slotlarining tizimli voqelanishi hamda muallif ongining markerlari sifatidagi funksiyasi yaxlit tizimda yetarlicha ochib berilmagan. Shu jihatdan yozuvchining ijodiy faoliyatida freymni modellashtirish va voqelantirish mexanizmlarini aniqlash, badiiy matnni muallif ongining modeli sifatida talqin qilish asosida freym tarkibidagi kognitiv tuzilmalarning funksional xususiyatlarini ochib berish hamda asarga singdirilgan axborotning kognitiv izohlash dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida freym semantikasi, freymni aniqlash va interpretatsiya qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar izchil rivojlanib, antropotsentrik yondashuvning kuchayishi natijasida badiiy matndagi freymlarning, xususan, kutilmaganlik, yangilik va yuqori darajadagi ifodalilik bilan ajralib turuvchi individual-mualliflik freymlarining semantik-kognitiv xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mavjud tadqiqotlarda badiiy freym asosan bilimlarni tizimlashtiruvchi va muayyan vaziyatlarni reprezentatsiya qiluvchi kognitiv tuzilma sifatida talqin qilinayotgan bo‘lsa-da, uning individual mualliflik tafakkuri, muallifning konseptual olami va badiiy reallikni shakllantirish jarayoni bilan uzviy aloqasi, shuningdek, freym tarkibidagi slotlarning matn mazmunini yuzaga chiqarishdagi funksional xususiyatlari yetarli darajada tizimli ochib berilmagan. Shu bois individual-mualliflik freymlarini modellashtirish, ularning semantik tuzilishi va tarkibiy slotlarini aniqlash, freymning badiiy matnda voqelanish mexanizmlarini hamda yangi badiiy reallikni yaratishdagi kognitiv-semantik imkoniyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslik va kognitiv adabiyotshunoslikning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda kognitologiya, narratologiya, matn hosil bo‘lishi, neyrolingvistika, til va badiiy dunyo manzarasi, yozuvchi muallif ongini o‘rganish kabi zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar doirasida keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda hamda badiiy matnni muallifning kognitiv faoliyati va badiiy tafakkuri bilan bog‘liq holda tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Fan va ma’rifat nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishda birlamchi ahamiyatga ega. Fan rivojlanmagan joyda jamiyatning barcha sohalarida regress, ortda qolish kuzatiladi. Zamonaviy bilimlarni egallashga intilish, ma’rifatli bo‘lish va yuqori madaniyatga ega bo‘lish barchamiz uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[1]. Mazkur vazifalardan kelib

[1] Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису от 25.01.2020 г. // https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020

chiqib, badiiy freymni kognitiv-freym tahlili asosida o‘rganish, freym modelining til birliklari va kognitiv tuzilmalar o‘rtasidagi aloqasini aniqlash, individual-mualliflik freymining badiiy matnda voqelanish mexanizmlari hamda muallif ongini reprezentatsiya qilishdagi funksiyalarini ochib berish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborot jamiyati va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishi uchun innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Haruki Murakami ijodini o‘rganishga xorijiy olimlarning ko‘plab ishlari bag‘ishlangan bo‘lib, ularning aksariyati tarjimashunoslik yo‘nalishida J. Derrida, E. Fovler, P. Nyumark, J.Rubin, D. Kavalenin, M. Strecher, C. Laghman, K. Yamashita-Sokolova, Y. Mesherekov, O. Shashkinalar [2] tomonidan amalga oshirilgan. Badiiy makonda freymni modellashtirishning umumiy va xususiy muammolari qator olimlarning, xususan,

[2] Derrida J. Letter to a Japanese Friend // Derrida and Différance. / David Wood and Robert Bernasconi. - Evanston: Northwestern UP, 1988. -P. 1-5; Fowler E. Rendering Words, Traversing Cultures: On the Art and Politics of Translating Modern Japanese Fiction // Journal of Japanese Studies 18.1, 1992. -P. 1-44; Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 402 p.; Rubin J. The Other World of Haruki Murakami // Japan Quarterly 39.4, 1992. – P. 490-500; Коваленин Д. Суси-Нуар 2. Зомби нашего времени. Занимательное Мураками Едение от «Подземки» до «1Q84»- СПб., Питер, 2020. – 400 с.; Strecher M. C. Magical Realism and the Search for Identity in the Fiction of Murakami Haruki // Journal of Japanese Studies 25.2, 1999. – P. 263-98; Loughman C. No Place I Was Meant to Be: Contemporary Japan in the Short Fiction of Haruki Murakami // World Literature Today 71.1, 1997. – P. 87-94; Ямасита-Соколова К. Японская литература за пределами национальных границ// Миры Мураками. Материалы Международной конференции, посвященной 70летию Харуки Мураками 18 сентября 2019. – Южно-Сахалинск, 2020. – С.26-30; Мещеряков Я.В. Личность Харуки Мураками-японское и неяпонское // Миры Мураками: Материалы Международной конференции, посвященной 70летию Харуки Мураками 18 сентября 2019. – Южно-Сахалинск, 2020. – С. 66-68; Шашкина О.В. Абстрактный мир романа «Убийство командора» // Миры Мураками. Материалы Международной конференции, посвященной 70 летию Харуки Мураками 18 сентября 2019. – Южно-Сахалинск,2020. – С. 75-77.

M. Minskiy, N. Miroshnichenko, N. Golovanova, E. Stepanova, I. Kupriyeva, J.Nikonova, A. Pleshakova, A. Sienki [3] ilmiy ishlari va dissertatsiyalarida ko‘rib chiqilgan.

Freymning tipologiyasi va tuzilishiga oid masalalar S. Jabotinskaya, O. Jarina, A. Babushkin, I. Tarasova, G. Galich, O. Guselnikova, Ch. Filmor, D. Razenteva [4] kabi bir guruh xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida tadqiq etilgan. Muallif ongini o‘rganish muammosi so‘nggi davr filologlari L. Butakova, V. Belanin, M. Korolev, I. Merkulov, Y. Mesherekovlarning [5] ishlarida markaziy o‘rin tutadi. Til birliklarini kognitiv yo‘naltirilgan o‘rganish bilan bog‘liq masalalar o‘zbek tadqiqotchilari Sh.Safarov, M. Galiyeva, N. Jusupov, D. Ashurova, M. Galiyeva, Y. Arustamyan, N. Normurodova, A. Abduazizovlarning[6] ishlarida ham ko‘rib chiqilgan. Haruki

---

[3]Минский М. Фрейм для представления знаний. – М.: Энергия, 1979. – 151 с.; Мирошниченко Н.С. Фрейм «Восстановление» и его репрезентация лексическими единицами в современном английском языке: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. -Белгород, 2020. – 28 с.; Голованова Н.Г. Графическая модель фрейма «Вооруженное столкновение» и лексико-грамматические средства его представления в тексте // Филологические науки. Вопросы теории и практики. №2 (32), 2014. Ч. 1. – С. 56–59; Степанова Е.С. Мифологический Фрейм и его языковое выражение в философском романах А.Мёрдок: Дисс...канд. филол. наук. – Самара, 2007. - 173 с.; Куприева И.А. Особенности репрезентации фрейма «Внимание» глагольно-именным словосочетанием «pay attention» // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах: Сб. ст. участников IV Международной научной конференции 25–26 апреля. Т. 1. – Челябинск, 2008. – С. 150–153; Никонова Ж.В. Фреймовый анализ речевых актов (на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009. – 41 с.; Плешакова А.В. Исследование фрейма «происшествие» на материале русских и английских текстов жанра «информационное сообщение»: Дисс. канд. филол. наук. – Саратов, 1998 – 28 с.; Cienki A. Frames, idealised cognitive models and domains // The Oxford handbook of cognitive linguistics. D. Geeraerts, H. Cuyckens (eds.). - NY: Oxford University Press, 2007. – P. 170–187.

[4] Жаботинская С. А.Концептуальный анализ языка: фреймовые сети // Вестник Одесского нац. ун-та. – Одесса: Астропринт, 2004, № 9. – С. 81–92; Жарина О.А. «Концепт» / «Фрейм»: Проблемы дефиниции и соотношения понятий в современной когнитивной лингвистике // Балтийский гуманитарный журнал, 2017. Т. 6. № 3(20). – С. 43–46; Тарасова И.А. Фреймовый анализ в исследовании идиостилей // Филологические науки. – 2004. – №4. – С. 42–49; Галич Г.Г. Категория или Фрейм // Вестник Омского у-та, 2014, №4. – С.150-152; Гусельникова О.В. Терминологический аппарат структуры Фрейма// Вестник ЧГПУ №9, 2010. – С.137-148; Fillmore Ch. J. Frame semantics // Linguistics in the morning calm: Selected papers from the SICOL–1981. Seoul: Hanship, 1982. – P. 111–137; Рязанцева Д.Б. Фреймово-слотовый анализ анекдота// Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах: Сб.статей участников Международной научной конференции 25-26 апреля 2008.– Челябинск ООО Из-во РЕКПОЛ,2008.- С.218-222.

[5] Бутакова Л.О. Авторское сознание как базовая категория текста: Когнитивный аспект: Дисс. … докт. филол. наук. – Омск, 2001. – 459 с.; Белянин В.П. Психологическое литературоведение: Текст как отражение внутренних миров автора и читателя: – М.: Генезис, 2006. – 320 с.; Королев М.Ю. Авторское сознание и художественное творчество// Вестник КГУ им. Некрасова №3,2010. – С.93-98; Меркулов И.П. Когнитивная модель сознания//Эволюция мышления. Сознание. под.ред. И.П.Меркулова. – М., 2004. – С.36-64; Мещеряков Я.В. Личность Харуки Мураками-японское и неяпонское// Миры Мураками: Материалы Международной конференции, посвященной 70летию Харуки Мураками 18 сентября 2019. – Южно-Сахалинск, 2020. – С. 66-68.

[6]Сафаров Ш.С. Семантика. – Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 93 б.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word/ Сўз/Слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мирах. Дисс…канд. филол. наук. -Ташкент, 2010. – 153 с.; Джусупов Н. М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте. Дисс. … докт. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 330 с.; Ашурова Д.У., Галиева М.Р. Cognitive Linguistics [Когнитив лингвистика]: Ўқув қўлланма.– Тошкент: 2018. – 107 р.; Ашурова Д.У. Новые тенденции в развитии стилистики // Til va nutq system-sath talqinida: материалы науч.-теор. конф. - Самарканд: СамГИИЯ, 2005. – С. 7-8; Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка // “Ўзбекистонда хорижий тиллар”: Илмий-методик электрон журнал. № 2 (21), 2018. – С. 104-110; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология. № 3, 2016. – С. 54-58; Арустамян Я.Ю. Когнитивно-прагматические основания художественного перевода: Дисс. … докт. филол. наук. – Ташкент, 2021. – 262 с.; Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в

Murakami ijodi T. Elis, M. Strecher, F. Murakami, K. Karatani [7] tadqiqotlarida asosan kulturologiya nuqtai nazaridan o‘rganilgan hamda D. Storey, S. Fisher, S.Boyeva, M. Akins, D. Flyn, K. Amanullayeva [8] dissertatsiyalarining tadqiqot predmetini tashkil etgan.

Freym modelining badiiy makonda voqelanishi muammosi bugungi kunda kognitiv adabiyotshunoslik uchun dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Badiiy makonda freym modelining voqelanishi yaqqol ifodalangan individual-mualliflik, milliy-semantik va aksiologik xarakterga ega bo‘lib, unda muallif modalligi aniq namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur tadqiqot bo‘yicha nazariy va metodologik bazani shakllantirish ancha murakkab va hajmli vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Zamonaviy yapon filologiyasining dolzarb muammolari va uni o‘qitish metodikasi” mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Haruki Murakami romanlarining badiiy makonida “San’at” freymi modelining reprezentatsiya usullarini ko‘rib chiqish, freymning tuzilmasi va uning slotlarini aniqlash hamda so‘nggi asarlarda “yozuvchi va rassom” personaj konseptlarining mavjud bo‘lish motivatsiyasini aniqlash, shuningdek, personaj konseptlarini tavsiflash uchun tarjimalarda “kokoro/sinsin” konseptlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy “San’at” freymini kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tavsiflash va uning voqelanishining asosiy parametrlarini aniqlash, shuningdek, freymning individual xarakterini, freym modeli voqelanishi jarayonida ishtirok etuvchi etnokonseptlarni belgilash;

freym modeli tarkibiy qismlarining bog‘lanish qonuniyatlarini, ularning o‘zaro ta’siri va muvofiqligini muallifning obyektiv badiiy voqeligini (manzarasini) anglash uchun tavsiflash;

англоязычном художественном дискурсе: Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 94 с.; Абдуазизов А.А. О соотношении когнитивной семантики и стилистики // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – С. 14-16; Strecher M. Dances With Sheep: The Quest of Identity in the Fiction of Murakami Haruki. Center for Japanese Studies, University of Michigan, 2002. - 234 p.

[7] Elis T. Questioning Modernism and Postmodernism in Japanese Literature. // Japanese Encounter with Postmodernity. / Eds. Johann Arnason and Yoshio Sugimoto. - New York: Columbia UP, 1995. – 303 p.; Strecher M. Dances With Sheep: The Quest of Identity in the Fiction of Murakami Haruki. Center for Japanese Studies. – University of Michigan, 2002. – 234 p.; Murakami F. Postmodern, feminist and postcolonial currents in contemporary Japanese culture: A reading of Murakami Haruki, Yoshimoto Banana, Yoshimoto Takaaki and Karatani Kojin. – New York: Routledge, 2005. – 208 p.; Karatani K.: Murakami Haruki’s landscape // Murakami Haruki Studies, 01. / Eds. Yoshiki Kuritsubo and Teruhiko Tsuge. – Tokyo: Wakakusa Shobo, 1999. – P. 296–306.

[8] Storey D. Speaking the Unspeakable: Images of Madwomen in the Works of Furui Yoshikichi, Murakami Haruki, and Yamamoto Michiko: PhD Thesis. – Stanford University, 1993. – 338 p.; Fisher S. The Genre for Our Times: The Menippean Satires of Russel Ho-ban and Murakami Haruki: PhD Thesis. – The University of British Columbia, 1997. – 301 p.; Боева С.А. Творчество Харуки Мураками в условиях глобализации межкультурной коммуникации: Автореф. дисс…канд. культурологии. – Владивосток, 2009. – 28 с.; Akins M. Time and space reconsidered: the literary landscape of Murakami Haruki: PhD Thesis. SOAS. – University of London, 2012.–333 p.; Flynn D. Literature’s Postmodern Condition Representing the Postmodern in the Translated Novel: PhD Thesis. – Mary Immaculate College, University of Limerick, 2014. – 377 p.; Амануллаева К. М. Концептосфера художественного произведения и средства репрезентации базовых концептов в переводе (на материале произведений Харуки Мураками): Автореф. дисс...канд. филол. наук. - Самарканд, 2020. - 25 с.

Haruki Murakami romanlarining har birida freym modeli va uning slotlarini tuzilma sifatida ochib berish;

Haruki Murakami asarlarida muallif ongining markerlari sifatida shakllanuvchi “personaj-konseptlar”, xususan, yozuvchi va rassom obrazlarining konseptual mohiyati, shuningdek, asosiy konseptlarning badiiy matn yaxlitligi va muallifning o‘ziga xos ovozini buzmagan holda tarjimada qayta ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Haruki Murakami romanlarining badiiy makonida “San’at” freymi modellarining tuzilmasi va ularning ruscha tarjimalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini freym modellarida muallif tomonidan kodlangan badiiy axborot, Haruki Murakamining kognitiv makonini hamda etno- va “personaj” konseptlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda asosiy metod sifatida kognitiv-freym tahlili qo‘llanilib, badiiy matnda “San’at” freymining konseptual tuzilishi, slotlarining funksional-semantik xususiyatlari va muallif ongining kognitiv markerlarini aniqlashda kognitiv-konseptual tahlil, kognitiv modellashtirish va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

freymni kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish zarurati asoslanib, badiiy asarni kommunikativ tizim sifatida taqdim etishning muallif estetik qarashlarini san’atga oid konseptlar orqali aniqlash, personajlarning ruhiy-intellektual qiyofasini ochib berish hamda takrorlanuvchi badiiy motivlarning matn yaxlitligini ta’minlashdagi rolini belgilash kabi yangi imkoniyatlari ochib berilib, Haruki Murakamining individual-mualliflik kognitiv makoni tavsiflanib, unda “San’at” freymi yozuvchining ijodiy ongida muallif intensiyasini ifodalovchi muhim kognitiv vositasi ekanligi isbotlangan;

“san’at” freymining badiiy matnda reprezentatsiyalanishning individual-mualliflik xarakteri, personajlarning ruhiy holati va ijodiy faoliyati orqali voqelanishi hamda syujet-kompozitsion yaxlitlikni ta’minlashi kabi xususiyatlari aniqlanib, “adabiyot”, “musiqa”, “tasviriy san’at” slotlari hamda “yozuvchi” va “rassom” personaj-konseptlarining muallif kasbiy ongini ifodalashdagi funksional roli asoslangan;

Haruki Murakami asarlari tarjimonlarining adekvat tarjimaga erishish jarayonida duch keladigan asosiy “kartina” (nihonga uslubida) badiiy konseptining ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali tabiati asoslanib, uning muallifning yapon mentaliteti va milliy-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi muhim konseptual birlik ekanligi isbotlangan;

Haruki Murakami asarlarida “San’at” freymining tuzililishi va uning slotlari individual-mualliflik kognitiv konstruksiyalari sifatida aniqlanib, “San’at” freymi modelining barcha tarkibiy elementlarini mantiqiy asoslash metodikasi ishlab chiqilgan hamda ularning yapon madaniyatiga xos individual-etnik va aksiologik ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy nasriy asarning originali va tarjimasini kognitiv-freym yondashuv asosida interpretatsion-tahliliy o‘rganish mexanizmlari ishlab chiqilgan, ulardan badiiy matnning estetik-mazmuniy xususiyatlari, “San’at” freymi va uning tarkibiy slotlari hamda muallif ongining kognitiv markerlarini aniqlashda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

“San’at” freymi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga oid nazariy xulosalar hamda amaliy yondashuvlar tizimlashtirilgan, ulardan badiiy matnni interpretatsiya qilish, tarjima jarayonlarini tahlil etish va ona tilidagi badiiy matnlarning kognitiv xususiyatlarini aniqlashda foydalanish imkoniyati asoslangan;

tarjimashunoslik, analitik o‘qish, zamonaviy yapon adabiyoti tarixi, badiiy matn interpretatsiyasi, lingvostilistika hamda matnning filologik tahliliga oid fan va maxsus kurslar mazmuniga tatbiq etish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kognitiv adabiyotshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika va psixologik adabiyotshunoslik sohalarida shakllangan nazariy qarashlar hamda konkret faktik materialning kompleks tahliliga tayanilganligi, tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari muallifning e’lon qilingan ilmiy ishlarida o‘z aksini topganligi va olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “San’at” freymi, uning tarkibiy slotlari va individual-mualliflik konseptlarining kognitiv adabiyotshunoslikdagi nazariy talqini aniqlanganligi, “adabiyot”, “musiqa” va “tasviriy san’at” konseptlarining muallif ongini reprezentatsiya qilishdagi o‘rni ochib berilganligi, badiiy freymlarni tahlil qilishning kognitiv-freym metodikasi hamda badiiy asarni kognitiv, madaniy va kommunikativ kontekstlar uyg‘unligida tadqiq etish imkoniyatlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda to‘plangan materiallar, ishlab chiqilgan tahlil mexanizmlari va ilmiy xulosalardan analitik o‘qish, zamonaviy yapon adabiyoti, kognitiv adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, badiiy matn interpretatsiyasi, lingvostilistika hamda matnning filologik tahliliga oid fan va maxsus kurslarda, shuningdek, darslik, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratishda hamda badiiy matnni kognitiv-freym asosida tadqiq etishga doir ilmiy izlanishlarda foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Badiiy makonni modellashtirish jarayonida freymni tahlil qilishning ishlab chiqilgan prinsiplari va uni interpretatsiya qilish usullari, shuningdek, freym modeli elementlarini tahlil qilish va ularni badiiy matn makonida verbalizatsiya qilish usullarining tavsifi quyidagi loyihalarga joriy etilgan:

freymni kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish zarurati asoslanib, badiiy asarni kommunikativ tizim sifatida taqdim etishning muallif estetik qarashlarini san’atga oid konseptlar orqali aniqlash, personajlarning ruhiy-intellektual qiyofasini ochib berish hamda takrorlanuvchi badiiy motivlarning matn yaxlitligini ta’minlashdagi rolini belgilash kabi yangi imkoniyatlari ochib berilib, Haruki Murakamining individual-mualliflik kognitiv makoni tavsiflanib, unda “San’at” freymi yozuvchining ijodiy ongida muallif intensiyasini ifodalovchi

muhim kognitiv vositasi ekanligi isbotlanganligi haqidagi tadqiqot natijalari WAGO Co. LTD tashkilotida (Kawasaki, Japan) yapon tilini o‘qitish va yuridik hujjatlarni tarjima qilish jarayoniga ilmiy manba sifatida joriy etilgan (WAGO Co. LTDning 2026-yil 16-apreldagi №15 ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur tadqiqot natijalaridan yapon tilini o‘qitish hamda yuridik hujjatlarni tarjima qilish jarayonlarida ilmiy-metodik manba sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

“san’at” freymining badiiy matnda reprezentatsiyalanish xususiyatlari aniqlanib, “adabiyot”, “musiqa”, “tasviriy san’at” slotlari hamda “yozuvchi” va “rassom” personaj-konseptlarining muallif kasbiy ongini ifodalashdagi funksional roli asoslanganligi haqidagi ilmiy xulosalar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 2025–2026-yillarda amalga oshirilgan № KA171 “Exchange Programme For International Mobility with Koszalin University of Technology” xalqaro amaliy loyihasi doirasida qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 21-apreldagi №04/11-10550 ma’lumotnomasi). Natijada, xalqaro akademik almashinuv jarayonida badiiy matnni kognitiv-freym yondashuv asosida tahlil qilish, “San’at” freymi slotlari va personaj-konseptlarning muallif kasbiy ongini ifodalashdagi funksional xususiyatlaridan ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Haruki Murakami asarlari tarjimonlarining adekvat tarjimaga erishish jarayonida duch keladigan asosiy “kartina” (nihonga uslubida) badiiy konseptining ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali tabiati asoslanib, uning muallifning yapon mentaliteti va milliy-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi muhim konseptual birlik ekanligi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan № AM F3-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” (2020–2023) amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 16-apreldagi №01-2020 ma’lumotnomasi). Natijada, badiiy konseptlarning ko‘p funksiyali tabiati va milliy-madaniy mazmunini aniqlashga oid ilmiy yondashuvlardan ta’limiy korpus materiallarini shakllantirish va tavsiflash jarayonida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Haruki Murakami asarlarida “San’at” freymining tuzilishi va uning slotlari individual-mualliflik kognitiv konstruksiyalari sifatida aniqlanib, “San’at” freymi modelining barcha tarkibiy elementlarini mantiqiy asoslash metodikasi ishlab chiqilgan hamda ularning yapon madaniyatiga xos individual-etnik va aksiologik ahamiyati ochib berilganligi haqidagi xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 “O‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish — axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi” innovatsion grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 20-maydagi № 4/2483 ma’lumotnomasi). Natijada, “San’at” freymi modelining tarkibiy elementlarini mantiqiy asoslash va ularning individual-etnik hamda aksiologik xususiyatlarini aniqlashga oid metodik yondashuvlardan dasturiy vositaning lingvistik ma’lumotlarini shakllantirish va tavsiflash jarayonida ilmiy-metodik manba sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda muhokamadan o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan 2 tasi xalqaro va 2 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalaridir.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan bo‘lib, ulardan 6 tasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda, jumladan 3 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **“Kirish”** qismida mavzusining dolzarbligi va ilmiy yangiligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining birinchi bobi **“San’at” freymi modeli tuzilmasida muallif ongining aks etishi”** deb nomlanib, unda Haruki Murakami ijodining kognitiv asoslari, freym tushunchasining kognitiv adabiyotshunoslikdagi nazariy talqini, yozuvchi romanlarida “San’at” freymining konseptual-grafik modeli hamda tarjima etikasi badiiy asarning mazmuniy-estetik uyg’unligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida tahlil qilingan.

Zamonaviy filologlarning tobora ko‘proq qismi matnga ideal kompleks yondashuv istiqbolini anglamoqda: “Badiiy adabiyotda til hodisalariga kognitiv yondashuv adabiyotshunoslik yo‘nalishining dinamik shakllanishida asosiy ijodiy boshlanish sifatida xizmat qiladi”[9]. Tilshunoslar va adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish inson ongining, bilimning, vaziyatning umumiy maydonlariga murojaat qilinishini ko‘rsatadi, shuningdek, termin mohiyatini tushunishga ikki yondashuvni belgilaydi: “freym bilim tuzilmasi sifatida va freym bilimni taqdim etish tuzilmasi sifatida: “…freymni bilim tuzilmasi sifatida o‘rganishda biz til-hodisasiga murojaat qilamiz, freymni bilimni taqdim etish tuzilmasi sifatida tadqiq etishda esa e’tibor obyekti til-konstruktor bo‘ladi”[10]. Shunday qilib, kognitiv adabiyotshunoslik badiiy asarni muallifning individual bilimlar tizimi va lisoniy shaxsiyati mahsuli sifatida talqin qiladi. Haruki Murakami asarlarida esa uning ijodiy tajribasi va intellektual qiziqishlari “adabiyot”, “musiqa” va “tasviriy san’at” konseptlari orqali voqelanib, “San’at” freymining dominant

[9] Витковская Л. В. Когниция смысла: Литературоведение XXI века. Изд. второе, дополненное. – Пятигорск: Изд-во Пятигорского государственного лингвистического университета, 2012. – 236 с.
[10] Соколова О.В. Категория фрейма в когнитивной лингвистике// Вестник АГТУ 2007, №1(36). – С. 236-238.

tarkibiy qismlarini tashkil etadi hamda uzual va individual-mualliflik, ayrim hollarda esa subyektiv xususiyat kasb etadi.

Freymning inson bilimining yoki konseptual makonning bog‘langan sohasi sifatida ta’rifini qabul qilgan holda, Haruki Murakami asarlarini interpretatsiya qilish jarayonida aniqlangan ierarxik individual slotlar tuzilmasini belgilaymiz. Yuqoridagilarga asoslanib, kognitiv adabiyotshunoslik individual konseptualizatsiya va kategoriyalash jarayonlari bilan ish ko‘rishini umumlashtirish mumkin. Yozuvchilik kamdan-kam hollarda jamoaviy mehnat bo‘lib, bitta muallif ongini aks ettirganligi sababli, quyidagini sxematik tarzda tasavvur etish mumkin: yozuvchining voqelikni idrok etishi – ushbu bilimlarni strukturallashtirish – muallifning konseptual-semantik pozitsiyasi, uning madaniy kodi – muallif intensiyasining ifodasi sifatida konseptual tuzilmani aniqlash. Charles Filmor formulasi kognitiv adabiyotshunoslik uchun mos keladi: “freym” termini ostida men shunday tarzda o‘zaro bog‘langan har qanday konseptlar tizimini nazarda tutamanki, ulardan birortasini tushunish uchun u joylashgan butun tuzilmani tushunish zarur [11].

Haruki Murakami ijodi ko‘p qirrali bo‘lib, uning tarjimonlik faoliyatini kognitiv jarayonning tarkibiy qismi sifatida qayd etamiz. Jey Rubin Haruki Murakamini tarjimon sifatida “zamonaviy Yaponiya adabiy olamida muhim shaxs” deb hisoblaydi.

Tarjima – madaniyatlar dialogi, uzoq tillar, turli mentalitetlarning uchrashuvidir; tarjimonga matn ichiga “kirib borish va uning individual tasavvurini shakllantirish” uchun oddiy bilimlar yetarli emas, unga ona tili bo‘lmagan tilga nisbatan sezgi ham zarur. Ushbu soha mutaxassislari ta’kidlaganidek, tarjimon ongida turli til dunyo manzaralari uchrashadi: “Inson ongida lingvistik bilimlarning ikki baravarlashuvi lingvokognitiv va tezaurus darajalarining ham ikki baravarlashuviga olib keladi…”[12].

Tarjima nazariyotchilarining ishlarida “emotsionallik, uyg‘unlik, diskurs, madaniyatlar dialogi” kabi so‘zlar tez-tez uchraydi. K.I. Leonteva tarjimon Shaxsining ahamiyatiga urg‘uni kuchaytiradi, u “diskurs tarjimasi sifatida tarjimaning semiotikasini” yaratadi: “diskurs semiotikasi bizni tarjimani faoliyat sifatida ko‘rib chiqishga majbur etadi, biroq endi “jonli idrok” paradigmasi nuqtai nazaridan, chunki faol va muayyan pozitsiyaga ega shaxsning faoliyati, individual va ijtimoiy, mental, hissiy va jismoniy birlikda, u dunyo obrazini vositachilik qiladigan muhit bilan o‘zaro ta’sirda ushbu shaxsning mulkiga aylanadi” [13]. Yozuvchining tarjimonlik faoliyati uning ijodining muhim kognitiv jihati hisoblanadi.

Haruki Murakami asarlarining qahramonlari – zamonaviy yaponlar bo‘lib, ma’naviy muammolarga ega, inqirozli lahzalarda yashaydilar, shu sababli bo‘shliq

[11] Fillmore Ch. J. Frame semantics // Linguistics in the morning calm, ed. The Linguistic Society of Korea. - Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.

[12] Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. –Тошкент: “Навруз”, 2019. -299 с.

[13] Леонтьева К.И.Дискурсивный подход как вариант реализации программы антропоцентризма в теории художественного перевода // Филологические науки. Вопросы теории и практики. №1955) в 2 частях, Ч.1. – Тамбов: Грамота, 2016, – С.148-154.

va yolg‘izlik hissi Haruki Murakamining go‘yoki “muallif kodi” hisoblanadi: “Men romanlarni yagona maqsad bilan yozaman: noyob inson ruhini yuzaga chiqarish va unga yorug‘lik tushirish” [14]. Adabiyot va musiqaga nisbatan shaxsiy aksiologik munosabatni hisobga olgan holda, yozuvchi qahramonning yolg‘iz ruhi uchun shunday intellektual boshpana yaratadi – “kitob o‘qish va musiqa tinglash”.

Haruki Murakami ashaddiy kitobsevar bo‘lib, u ko‘plab asarlarga bo‘lgan muhabbatini tan oladi. S.A. Boyeva “Madaniyatlararo kommunikatsiya globallashuvi sharoitida Haruki Murakami ijodi” nomli dissertatsiyasida ushbu muallif romanlarida uchraydigan “pretekslar”ni tahlil qilgan: “yozuvchi asarlarida uchraydigan adabiyot va falsafaga oid pretekslar 60 tadan ortiqni tashkil etadi”, “kinematografiya va dramaturgiyaga oid 50 ta pretekst”, “tarix, fan va an’anaga oid 20 tadan ortiq pretekst”, “musiqaga oid 40 tadan ortiq pretekstlarga havolalar”[15]. Hatto bunday “statistika”ning o‘zi ham Haruki Murakamining kognitiv bazasini tavsiflash uchun yetarlicha ta’sirchan ko‘rinadi.

V.V. Krasnix fikriga ko’ra, kognitiv baza “muayyan milliy-lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga xos bo‘lgan, strukturallashgan zarur bilimlar va milliy jihatdan belgilangan tasavvurlar majmuidir” [16]. Yozuvchining kognitiv bazasiga ijodiy kognitiv qobiliyatlar, individual kasbiy tajriba, ijod obyekti predmetini har tomonlama o‘rganish, kasbiy jarayonga (yozuvchi va rassom sifatida) kirish ham qo‘shilishi lozim. Yuqoridagilarning barchasi Haruki Murakami romanlarini kognitiv tahlil qilish uchun muhim asos sifatida “ijodiy ong”ni ta’kidlash imkonini beradi: “…badiiy ijodiy aktda estetika, kulturologiya, madaniyat falsafasi doirasida anglanadigan universalistik prinsiplarning, shuningdek, rassomning subyektiv dunyosining badiiy vositalar orqali ifodalangan sintezi yuz beradi” [17].

N.S. Bolotnova quyidagini ta’kidlaydi: “Har bir matn ortida til shaxsi turadi” tezisi aslida matn faoliyatida insonning o‘zi aks etishini anglatadi” [18]. Eng to‘liq va ishonchli tarzda L.O. Butakova matnni “muallif ongining modeli”, “yaxlit dinamik tizim sifatidagi matn” sifatida ta’riflaydi, shuningdek, “… matn muallifining ong tuzilmalari verbal ifodalangan kognitiv birliklar orqali tahlil qilinadi” deb ta’kidlaydi[19]. L.O. Butakovaning ushbu qoidalari mazkur ishda Haruki Murakami ijodida “San’at” freymi va asarlarda individual tarzda keng ifoda qilingan slotlar (konseptlar): “musiqa, adabiyot va tasviriy san’at” taqdim etilgan paragrafga o‘tishni nazariy jihatdan asoslaydi.

Kognitiv fanining predmeti inson bilimining tuzilishi va faoliyati, inson bilim tizimini, uning kognitiv bazasini umumiy holda strukturallashtirish muammosidan iborat: “Kognitiv fan quyidagi fundamental g‘oyaga asoslanadi: tafakkur freymlar

[14] Коваленин Д. Суси-Нуар 2. Зомби нашего времени. Занимательное Мураками Едение от «Подземки» до «1Q84» – СПб., Питер, 2020. – 400 с.

[15] Боева С.А. Творчество Харуки Мураками в условиях глобализации межкультурной коммуникации: Автореф. дисс…канд. культурологии. – Владивосток, 2009. – 28 с.

[16] Красных В.В. От концепта к тексту и обратно// Вестник МГУ. Серия Филология. № 1, 1998. – С. 53–70.

[17] Пичко Н.С. Художественное сознание как универсум// Ярославский педагогический вестник.т.1. (культура) 2015, №1. – С.56-60.


[18] Болотнова Н.С. Филологический анализ текста: Учеб. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 520 с.

[19] Бутакова Л.О. Авторское сознание как базовая категория текста: Когнитивный аспект: Дисс…докт. филол. наук. – Омск, 2001. – 459 с.

kabi ichki (mental) reprezentatsiyalarni manipulyatsiya qilishdan iborat… Demak, biz konseptlar, ssenariylar bilan, yaxshi strukturallashtirilgan bilimning global kvantlari sifatida fikrlaymiz”[20].

Konseptlarning (adabiyot, musiqa, tasviriy san’atda) qo‘llanish chastotasi Haruki Murakamining barcha asarlarida yetarlicha yuqori bo‘lib, ularning voqelanishi ko‘p funksiyalidir. Aynan ushbu individual-mualliflik konseptlari “San’at” freymining slotlari hisoblanadi: “…verbal markerlar orqali muallif konseptosistemasining dominant konseptlari aniqlanadi”[21].

Masalan, yozuvchining aniq stilistik dominantasi muayyan musiqiy va syujet-belgili leytmotiv hisoblanadi, bu esa ko‘plab musiqiy asarlar ichidan asosiylarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi: Haruki Murakamining “Vintli qush solnomasi” romanida La gazza ladra uverturasi Rossininiki; “1Q84” trilogiyasida – Sinfonietta Yanacheka; “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasida – Der Rosenkavalier Richard Straussniki.



1-sxema. Umumiy sxema.

“Musiqa” konsepti asarlarda o‘ziga xos janrlar majmuasini tashkil etadi: jaz, opera, klassik musiqa, ommabop kuylar, qahramonning musiqiy didi va boshqalar. Mazkur holat konseptning har bir bo‘lagini kontekstda yoki muayyan vaziyatda, yoxud qahramon bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini nazarda tutadi. Misol sifatida “1Q84” trilogiyasining “o‘tkazuvchi” liniyasini – Sinfonietta Yanacheka asarini ajratamiz. Aynan uning yangrashi va Aomame tomonidan idrok etilishi bilan hikoya boshlanadi.

Shuni qo‘shimcha qilish lozimki, Haruki Murakami romanlarida dominant konseptlar qahramonning ishonarli obrazini yaratadi. “1Q84” romanida “adabiyot”

[20] Маслова В.А. Поэт и культура. Концепросфера Марины Цветаевой: Учеб. пособие . – М.: Флинта, 2004. – 256 с.

[21] Гацура Н.И. Специфика модели авторского сознания,репрезентированного в разножанровых текстах (на материале творчества О.Хаксли): Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Барнаул, 2011. – 18 с.

konsepti “ijod” segmentini o‘z ichiga oladi, chunki qahramon Tengo – kasbiy jarayon haqida mulohaza yurituvchi yozuvchidir. Mazkur romanda “adabiyot” konsepti alohida ahamiyat kasb etadi: adabiyotning tayyor mahsuli – “Havo kokoni” romani syujet chiziqlaridan birini tashkil etadi; ushbu asar Tengo tomonidan ijodiy qayta talqin etilishining ifodasi hisoblanadi; Tengoning intellektual darajasi “Havo kokoni”ni yapon O‘rta asr adabiyoti asarlari (“Kodziki”, “Tayra uyi haqidagi rivoyat” va boshqalar) bilan qiyoslash orqali namoyon bo‘ladi.

“Komandorni o‘ldirish” dilogiyasida – hikoya uning nomidan olib boriladigan bosh qahramon professional rassom bo‘lib, shu sababli “tasviriy san’at” konsepti “g‘arb tasviriy san’ati”, “yapon tasviriy san’ati”, “portret” janri segmentlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, “ijod” konsepti “rassom”, “personaj konsepti”ning paydo bo‘lishini mantiqan shartlaydi.

Haruki Murakami romanlarida harakat subyekti – bu yorqin obrazli xususiyatga ega bo‘lgan qahramon, yapon hisoblanadi. Haruki Murakami asarlarida “adabiyot”, “tasviriy san’at” va “musiqa” konseptlarini ko‘rib chiqib, freym subyektlarini ajratish orqali muallif tomonidan puxta o‘ylangan muayyan o‘zaro munosabatlar tizimi yaratiladi, bu esa matn yaxlitligiga xizmat qiladi.

Birinchi bobning uchinchi kichik bo‘limida tadqiqot markazida Haruki Murakami romanlari uyg‘un tarjimasining asosiy omillaridan biri sifatida tarjima etikasi turadi. Haruki Murakami romanlari 50 dan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, ularning tarjimasi, aniqrog‘i, tarjimonning mentaliteti va uning yapon madaniyatini bilishini hisobga olgan holda original matn tarjimalarining “variantlari”ni tahlil qilish jiddiy tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin edi. Vil Slokomb muharrirligi ostida chop etilgan “Haruki Murakami va tarjima etikasi” nomli maqolalar to‘plamini Haruki Murakami asarlari tarjimasining dolzarb muammolarini tahlil qilish namunasi sifatida qayd etamiz. Tarjimonni matn o‘zgaradigan filtr sifatida atagan holda, muallif tarjimaning asosiy sifatlarini, jumladan, matnning madaniy mazmunini ta’kidlaydi: “Adabiy tarjima jarayoni matnni yaxlit holda olib, uni boshqa til uchun taxminan ekvivalent shaklga keltirishdan iborat”. Bu “manba til”dan “maqsad til”ga o‘tish bo‘lib, bunda matn madaniy effekt hisoblanadi”[22]. Shuni qayd etish lozimki, yapon tili bilan ingliz tili o‘rtasidagi chuqur farq, mentalitetdagi tafovut alohida ta’kidlanadi; Haruki Murakami shaxsi tarjimonlar uchun keng materialni tashkil etishi mumkin (g‘arb/amerika madaniyatiga alohida qiziqish: jaz, adabiyot, falsafa), bularning barchasi uning romanlarida mavjud. Yapon adabiyoti G‘arb o‘quvchisi uchun G‘arb va Sharq o‘rtasidagi sun’iy dixotomiya tufayli murakkab hisoblanadi. Yapon klassikasi haqidagi tasavvurlar, matnlarda “vabi/sabi” kanonlarining namoyon bo‘lishi, nafis mifologik syujetlar estetikasi, “noziklik, sukutlilik, ilg‘ab bo‘lmaslik va iztirobli melankoliya”[23] tarzida ifodalanadi.

[22] Slocombe W. Haruki Murakami and the Ethics of Translation. CLCWeb Volume 6 Issue, 2 June 2004 Article 6// http://docs.lib.purdue.edu/clcweb/vol6/iss2/6

[23] Fowler E. Rendering Words, Traversing Cultures: On the Art and Politics of Translating Modern Japanese Fiction // Journal of Japanese Studies 18.1, 1992. – P. 1-44; Miura Masashi. "Nihon no shosetsu no tokucho." Shincho 86, 1989: [n.pag.].

Haruki Murakami yangi Yaponiya haqida yozadi, unda milliy identitet prinsiplari global identitet bilan keskin qarama-qarshilikda namoyon bo‘ladi va u umuman global hamjamiyatga nisbatan yangi yapon identitetini yaratishga intiladi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, g‘arbiy tillarga tarjimonlar Haruki Murakami romanlari tarjimalarini postmodernizm erkinligi nuqtai nazaridan qabul qiladilar, biroq romanlarning shakli va janr xususiyatlariga ham e’tibor qaratadilar. Zamonaviy yapon adabiyotida janr muammosi “men-romani” *私小説 [watakushi shosetsu]* va “ortodoksal roman” *本学小説 [hongaku shosetsu]* o‘rtasidagi farqlarda namoyon bo‘ladi. Ikki shaklga ajralgan holda, ruhiy holat romani *新居小説 [shinkyo shosetsu]* va iqrornoma romani sifatida “men-romani” o‘zini ifodalashdir, ya’ni dunyoni anglash (“ruhiy holat”) yoki o‘zini anglash (“iqrornoma”) orqali. Birinchi shaxsdagi formal hikoyachi (*わたくし* yoki *わたし*) pozitsiyasi tufayli ushbu adabiyot turi “yapon yozuvchilarining “modernizatsiya”ga bo‘lgan sa’y-harakatlari natijasida yuzaga kelgan noyob mahsul bo‘lib, ular G‘arb g‘oyalari bilan hayotiy to‘qnashuv sharoitida va yapon jamiyatidan nisbatan izolyatsiya holatida amalga oshirilgan”[24]. Ushbu kontekstda Haruki Murakami tomonidan *「僕」* “boku”, ya’ni norasmiy hikoyachidan foydalanish “men-romani”ning postmodernistik o‘zlashtirilishi hisoblanadi, chunki u G‘arbiy narrativ modellarni o‘z ichiga oladi. Haruki Murakami o‘z narrativlari orqali nafaqat G‘arb va Sharq o‘rtasidagi, balki individualistik “men-romani” va ijtimoiy “ortodoksal roman” o‘rtasidagi chegaralarni ham yo‘q qiladi. Buni Haruki Murakami asarlari tarjimonlari oldida turgan “umumiy” masalalarga kiritish mumkin, biroq tarjimaning amaliy jarayoni uchun ko‘plab kasbiy mavzular mavjud.

Yapon tilida birinchi shaxs olmoshining ikki shakli mavjud: *僕* “boku” (norasmiy) va *私* “watashi” (rasmiy). Diqqatga sazovorki, D. Kovalenin rus tiliga *僕* “boku” va *私* “watashi”ni adekvat tarzda yetkazish muammosiga to‘xtalib, sof “lingvistik” muammoni kengaytiradi. Mazkur tarjimon uchun xos jihat – faqat qo‘llangan usulni qayd etish emas, balki doimo Haruki Murakamining badiiy mantiqini anglashga intilishdir: “Boku” – erkaklarga xos so‘zlashuv “men”i bo‘lib, hikoya aynan undan olib boriladi… va u yana “Sohildagi Kafka” (2002) romanida qaytadi. Murakami uchinchi shaxsdan hikoya qilishga o‘tdi va faqat 15 yil o‘tgach “Komandorni o‘ldirish”da yana birinchi shaxsga qaytdi”[25]. Ko‘rib turganimizdek, turli til va madaniyat vakili bo‘lgan tarjimonlar uchun original matnda kuzatilgan bir xil hodisani yechishda turlicha yondashuv mavjud. Hech qaysi ikki madaniyat mutlaqo bir xil emasligi bu muammoni yanada murakkablashtiradi, chunki idiomatik tilni ma’noni saqlagan holda tarjima qilish qiyin.

Tarjima muammosi (uyg‘unlik, adekvatlik, semantik aniqlik) hozirgi vaqtda Yaponiya madaniy muhitidan uzoq bo‘lgan turli tillarga zamonaviy tarjima natijalari bilan aniqlashtirilmoqda va to‘ldirilmoqda. Masalan, Fovler quyidagini taklif qiladi: “biz tarjimalarni ko‘p sonli nozik jihatlarga ega bo‘lgan matnlar sifatida ko‘rib chiqishimiz kerak”[26], chunki tarjimalar original matnlar emas.

[24] Lippit N. M. Reality and Fiction in Modern Japanese Literature. -New York: Macmillan, 1980. – 219 p.
[25] Коваленин Д. Суси-Нуар 2. Зомби нашего времени. Занимательное Мураками Едение от «Подземки» до «1Q84» – СПб., Питер,2020. – 400 с.
[26] Fowler E. Rendering Words, Traversing Cultures: On the Art and Politics of Translating Modern Japanese Fiction // Journal of Japanese Studies 18.1, 1992. – P. 1-44.

Douglas Robinson tarjima etikasining “ichki” va “tashqi” shakllari o‘rtasidagi farqni ta’kidlaydi. Tarjima jarayonidan tashqarida belgilanadigan tashqi etika juda sodda: “tarjimon manba matn mazmunini buzmasligi kerak” [27]. Ichki etika esa murakkabroqdir. Jakques Derrida “Yapon do‘stiga maktub” tadqiqotida tarjimani o‘yin sinonimi sifatida belgilaydi: “dekonstruksiya masalasi, shuningdek, tarjima masalasidir” [28]. Bizningcha, D. Kovalenin Haruki Murakami matnini tahlil qilishda Yaponiya madaniy konseptlariga oid ko‘plab izohlarni qo‘shgan holda, tarjimani o‘quvchi ongining mentalitetiga mos holda adekvat qilishga intilishda mutlaqo haqdir.

Mazkur amaliyot “o‘qiladigan” yapon madaniy artefaktlariga bo‘lgan ehtiyojga javob beradi, obrazlar xulq-atvorini, shuningdek “mistik tekislik”ka o‘tishlarni yanada tushunarli qiladi (quduqlar haqidagi izohlar, mifologik personajlar (tulki, bo‘rsiq), buddaviy terminlar va tushunchalar). Haruki Murakamining o‘zi intervyularida hatto o‘zining yapon klassik adabiy an’anasiga mansubligini biroz mubolag‘a qiladi: “men o‘z monogatariimni yozaman”.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“San’at” freymining muallif ongida aks etishi mental va uni badiiy tasvirlash usullari**” deb nomlanadi. Ushbu bobning birinchi bo‘limi “musiqa” va “adabiyot” konseptlarining, “San’at” freymi tarkibiy qismlari sifatida, muallif ongining markerlari sifatida voqelanishiga bag‘ishlangan (Haruki Murakamining “Norveg o‘rmoni” romani materiali asosida). Bizningcha, “Norveg o‘rmoni” romani kelajakdagi qahramonning umumiy parametrini shakllantiruvchi o‘ziga xos asos, boshlang‘ich nuqta hisoblanadi, tabiiyki u 20 yoshli Vatanabedan ancha katta yoshga yetadi. Haruki Murakami o‘zining sevimli asarlariga alohida urg‘u beradi. Yozuvchi yoshlik davrida mashhur bo‘lgan amerikalik adiblar asarlarini sanab o‘tar ekan, o‘zining individual kitobxonlik didini bosh qahramon Vatanabe obrazi orqali ifodalaydi:

「僕はよく本を読んだが、沢山本を読むという種類の読書家ではなく、気に入った本を何度も読みかえすことを好んだ。僕が当時好きだったのはトルーマン・カポーテイ、ジョン・アップダイク、スコット・フィッツジェラルド、レイモンド・チャンドラーといった作家たちだった」[29][Boku wa yoku hon o yonda ga, takusan hon o yomu to iu shurui no dokushoka de wa naku, ki ni itta hon o nando mo yomikaesu koto o konda. Boku ga tōji suki datta no wa Torūman Kapōtei, Jon Appudaiku, Sukotto Fittsujerarudo, Reimondo Chandorā to itta sakka-tachi datta].“Men ko‘p kitob o‘qirdim, biroq juda ko‘p kitob mutolaa qiladigan kitobxonlar toifasiga kirmasdim; menga yoqqan asarlarni qayta-qayta o‘qishni yoqtirardim. O‘sha davrda ayniqsa Truman Capote, John Updike, F. Scott Fitzgerald hamda Raymond Chandler kabi yozuvchilarni sevib mutolaa qilardim”.[30]

Mazkur fragmentda Norveg o‘rmoni romanida qahramonning kitobxonlik didi orqali uning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalari yoritiladi. Yapon tilidagi original

[27] Robinson D. Becoming a Translator. – London: Routledge, 2019. – 304 p.
[28] Derrida J. Letter to a Japanese Friend // Derrida and Différance / Ed. David Wood and Robert Bernasconi. - Evanston: Northwestern UP, 1988. – P. 1-5.
[29] 村上春樹「ノルウェイの森」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2004. – P.28.
[30] Харуки Мураками. Норвежский лес. – М.: Из-во Эксмо, 2004. – С.45.

matnda “ko‘p kitob o‘qiydigan kitobxon” va “yoqtirgan asarlarini qayta mutolaa qiladigan kitobxon” o‘rtasidagi qarama-qarshilik alohida semantik ahamiyat kasb etadi. *「沢山本を読むという種類の読書家ではなく」[takusan hon o yomu to iu shurui no dokushoka de wa naku]* konstruksiyasi qahramon uchun mutolaa jarayonida miqdoriy ko‘rsatkich emas, balki asar bilan yuzaga keladigan chuqur hissiy va ruhiy bog‘liqlik muhim ekanligini ifodalaydi.

Matndagi *「読みかえす」[yomikaesu]* “qayta o‘qimoq” fe’li kitob mutolaasining oddiy o‘qish jarayoni emas, balki qahramonning ichki hissiy tajribasi va xotiralari bilan bog‘liq psixologik hodisa sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, kitoblar qahramonning shaxsiy identifikatsiyasi va individual dunyoqarashining ajralmas qismiga aylanadi.

Truman Kapot, John Apdik, Scot Fitjerald va Raymond Chandler nomlarining keltirilishi asarning intertekstual maydonini shakllantirib, g‘arb adabiyotining qahramon dunyoqarashi hamda estetik tafakkuriga ta’sirini namoyon etadi. Ushbu mualliflar ijodiga xos yolg‘izlik, ichki inqiroz va o‘zlikni anglash motivlari roman poetikasi bilan hamohanglik hosil qiladi.

Rus tilidagi tarjimada original matnning asosiy mazmuni saqlab qolingan bo‘lsa-da, muallifning refleksiv-falsafiy yondashuvi qisman qisqartirilgan. Tarjimada asosan qahramonning sevimli yozuvchilari sanab o‘tiladi, biroq kitobni yuzaki mutolaa qilish va uni chuqur ruhiy idrok etish o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilik to‘liq ifodalanmagan. Shu sababli yaponcha original matn falsafiy va psixologik jihatdan chuqurroq taassurot uyg‘otadi, ruscha tarjima esa nisbatan ixcham va neytral uslubda namoyon bo‘ladi.

O‘z navbatida “musiqa” va “adabiyot” konseptlari romanda yozuvchining o‘zi uchun alohida ahamiyat va intellektual qiymat kasb etadi. Individual-mualliflik “adabiyot” konsepti yordamida “Norveg o‘rmoni” romanida Vatanabening obrazli tavsifi yaratiladi va yozuvchining keyingi asarlarida buni dominantaga aylantirish tamoyili mustahkamlanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limida Haruki Murakamining “Vintli qush solnomasi” romanida “adabiyot” va “musiqa” konseptlari muallif ijodiy ongining kognitiv modeli asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Roman “birinchi shaxs shakli”da yozilgan bo‘lib, bu A.A. Boronin tomonidan kiritilgan “personaj submatni” terminidan foydalanish imkonini beradi va ayni paytda muallif modalligini hisobga olishni taqozo etadi: “… boshqa onglarning markazlari sifatida namoyon bo‘luvchi personaj submatnlari, ular harakat qiluvchi shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan virtual mental jarayonlarning verbalizatsiyasi modellashtirilgan natijasi hisoblanadi va badiiy nasriy matnda o‘ziga xos ajratilganlikka ega” [31] .

“Personaj submatnlari” da Toru Okadada “musiqa” konsepti dominant bo‘lgan vaziyatlarni ajratib ko‘rsatamiz. “Vintli qush solnomasi” matni “musiqa” konsepti bilan to‘yingan bo‘lib, shu bois mazkur konseptga markazlashgan bir nechta holatlarni ajratib tahlil qilamiz. Haruki Murakami bosh qahramonni klassik musiqa bilimi va musiqiy eshitish qobiliyati bilan tavsiflaydi: *「僕は FM 放送にあわせて*

[31] Боронин А.А. Интерпретация персонажных субтекстов: основы теории (на материале художественной прозы): Автореф. дисс... докт. филол. наук.– М., 2013. – С.50.

ロッシーニの『泥棒がささぎ』の序曲を吹いていた」[32] *[Boku wa FM hōsō ni awasete Rosshīni no "Dorobō ga sasagi" no jokyoku o fuite ita]. "...Rossinining "Qarg'a-o'g'ri" uvertyurasini hushtak bilan chalayotgan edi"*[33].

Mazkur fragmentda musiqiy konsept Toru Okadaning ichki dunyosini reprezentatsiya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yapon originalidagi *「FM 放送にあわせて」[Boku wa FM hōsō ni awasete] "FM eshittirishiga moslashtirib"* konstruksiyasi nafaqat musiqiy asarni tanib olishni, balki qahramonning ritm va melodiyani aniq takrorlay olish qobiliyatini ham ifodalaydi. Shu tariqa, muallif personajning musiqiy sezgirligi va madaniy kompetensiyasini aks ettiruvchi kognitiv xarakteristikani shakllantiradi.

Uvertyuraning qo'llanilishi intertekstual funksiyani bajarib, asarning madaniy kodini shakllantiradi. Murakami badiiy makonida klassik musiqa qahramonning intellektual sezgirligi hamda uning ichki o'zini anglash mexanizmini ifodalovchi konseptual marker sifatida xizmat qiladi.

Ruscha tarjimada umumiy semantik invariant saqlanib qolgan bo'lsa-da, originaldagi ayrim ma'no ottenkalari qisman reduksiyaga uchraydi. *"Uvertyurani hushtak bilan chalmoq"* tarjimasi melodiya ijrosi faktini saqlab qoladi, ammo FM efir bilan sinxronlik ma'nosini ifodalamaydi. Natijada qahramonning musiqiy aniqligi va eshitish qobiliyatiga berilgan urg'u susayadi. Demak, yapon matnida "musiqa" konsepti personaj obrazini kognitiv modellashtirish elementi sifatida namoyon bo'lsa, ruscha tarjimada u asosan fon madaniy detal vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bob doirasida, shuningdek, muallifning til shaxsini aks ettiruvchi dominant konseptlarning verbalizatsiya xususiyatlari ham o'rganiladi (Haruki Murakamining "Sohildagi Kafka" romani materiali asosida). "Kokoro" *「心」* va "sinsin" *「心身」* aksiologik konseptlari Haruki Murakami dunyoqarashi uchun muhimdir. Yozuvchi ushbu tushunchaga katta mazmun yuklaydi. "Kokoro" – bu insonning hayotiy mohiyati bo'lib, u axloqiy, izlanayotgan, o'z ichki dunyosini anglashga urinayotgan shaxsni ifodalaydi. Mazkur romanda asosiy g'oya sifatida Oshima so'zlari xizmat qiladi: *「君は自分の身体と心でそれに耐えなくてはならない」[Kimi wa jibun no karada to kokoro de sore ni taenakute wa naranai]*[34]. *"O'zingni chig'anoq kabi ichingni tingla"* va *"Ruhingni va tanangni chiniqtir"*[35], ya'ni ichki "Men" bilan tashqi hayot o'rtasida uyg'unlik topish zarur.

1. Ushbu romanda "yurak" sezilarli makonga ega, u seziladigan va moddiydir: *「僕の心に濃いブルーの字で、入れ墨として書きこむみたいに」[Boku no kokoro ni koi burū no ji de, irezumi to shite kakikomu mitai ni]*[36]. *"Go'yoki to'q ko'k siyoh bilan yuragimga tatuirovka qilgandek"* [37] yoki *「という部分が不思議に心に残るんだ」[To iu bubun ga fushigi ni kokoro ni nokoru n da]*[38] *"so'zlar yurakda tikanday qadalib qolardi"*[39].

---

[32] 村上春樹「ねじまき鳥クロニクル」（第 1 部）– Japan: Haruki Murakami, 1994. – P.11.

[33] Харуки Мураками. Хроника Заводной птицы. – М.: Издательство Независимая газета, 2003. – С.7.

[34] 村上春樹「海辺のカフカ」（下）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.216.

[35] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.479.

[36] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.8.

[37] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.12.

[38] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.182.

[39] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.149.

2. Yurak an’anaviy ravishda fiziologik organ bo‘lib qoladi, uning urishi qahramon tomonidan qayd etiladi: *「心臓の鼓動が激しくなり、なかなかもとに戻らない」[Shinzō no kodō ga hageshiku nari, nakanaka moto ni modoranai]*[40]. *“Yurak telbadek urardi va hech ham tinchimay qo‘ymasdi”*[41]. *「心臓の ド動怪が速まる」[Shinzō no kodō ga hayamaru]* [42]. *“Yurak isitmadagidek tez urardi”*[43]. *「心臓が乾いた音をたてる」[Shinzō ga kawaita oto o tateru]* [44]. *“Yurak go‘yoki moylanmagan mexanizmdek xirillagan zarbalar bilan ishlardi”*[45]. Mistika bilan bog‘liq qatl etuvchi Jonni Valker mushuklarning yuraklarini sug‘urib olib, “mushuk ruhlaridan naylar” yasash uchun foydalanadi.

3. Ruh qiyoslash orqali tavsiflanadi: *「君の心は長い雨で増水した大きな河に似ている」[Kimi no kokoro wa nagai ame de zōsui shita ōkina kawa ni nite iru]*[46]. *“Sening ruhing uzoq davom etgan yomg‘irlardan to‘lib-toshgan katta daryoga o‘xshaydi»”*[47]. Qahramonlar ruhi, o‘zining efemerligiga qaramay, makonga ham ega: *「夢の中でおこなわれたことに対して君は責任を負わなくてはならない」[Yume no naka de okonawareta koto ni taishite kimi wa sekinin o owanakute wa naranai]*[48]. *“Tush sening ruhingning qorong‘i burchaklaridan yuzaga chiqdi”*[49], bolalik ruhida esa “izlar qoladi”.

4. Avval bir necha bor ta’kidlanganidek, Haruki Murakami qahramonlari – yolg‘iz-intellektuallardir. Ularning sevimli mashg‘uloti – yolg‘iz holda musiqa tinglash yoki kitob o‘qishdir. “Ruh” konsepti yordamida u yoki bu asarni idrok etishga bo‘lgan reaksiya yaratiladi, qahramonning intellektual va madaniy darajasi ta’kidlanadi. Meloman Oshima uchun *「そこにはその作品にしかできない心の糸の引っ張りかたがある」[Soko ni wa sono sakuhin ni shika dekinai kokoro no ito no hipparikata ga aru]*[50] *“Shubertning re minor sonatasi tufayli “ruh torlari jaranglay boshlaydi”*[51]. Kafka Tamura esa, aksincha, bu musiqa “ruhga ta’sir qilmaydi” deb hisoblaydi. Haydovchi Hoshino, Nakata bilan bo‘lgan g‘ayrioddiy sayohati davomida ilk bor klassik musiqa tinglab, o‘ziga shunday e’tirof etadi *「その深く美しい旋律彼の胸に染みこみ、フーガの精緻な絡みは心をかきたてた」[Sono fukaku utsukushii senritsu wa kare no mune ni shimikomi, fūga no seichi na karami wa kokoro o kakitateta]* [52] *“chuqur va go‘zal ohang yuragiga singib borar, tovushlarning nozik uyg‘unligi ruhini larzaga keltirar edi”*[53]. Qahramon ichki jihatdan o‘zgaradi, noziklashadi, faqat moddiy dunyo tashvishlaridan uzoqlashadi. Ushbu konseptlar yordamida Saeki ham tavsiflanadi; u 19 yoshida yozgan

[40] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.75.
[41] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.66.
[42] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.-P.233.
[43] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.188.
[44] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.223.
[45] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.181.
[46] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.-P.16.
[47] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.19.
[48] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.228.
[49] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.184.
[50] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.191.
[51] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.156.
[52] 村上春樹「海辺のカフカ」（下）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.226.
[53] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.487.

qo‘shiqda mazkur roman barcha ramzlarini mujassam etgan: *「詩にもメロディーにも、言うまでもないことだけれど、遠く離れたところにいる彼を求める心が凝縮されていた」[Shi ni mo merodī ni mo, iu made mo nai koto dakeredo, tōku hanareta tokoro ni iru kare o motomeru kokoro ga gyōshuku sarete ita]*[54]*. “She’rda ham, ohangda ham, aytish shart emaski, uning uzoqda bo‘lgan sevgan insonini sog‘ingan ruhi mujassam edi”*[55].

“Sohildagi Kafka” romani, bir qarashda, Haruki Murakami narrativida alohida o‘rin tutadi. Ta’kidlash lozimki, 15 yoshli qahramon go‘yoki Haruki Murakamining an’anaviy qahramoni (yolg‘iz, 30 yosh atrofida, ajrashish arafasida yoki ajrashgan) formatidan “chetga chiqadi”. Kafka Tamura ham yolg‘iz, biroq uning intellektual hayoti rang-barang va ma’naviy oziqqa boydir. “Birinchi shaxs” shaklidagi bayon – romandagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “fokalizatsiya” usuli – samimiy monolog (jumladan ichki monolog) effektini yaratadi, bu esa yozuvchiga aynan shunday aksiologik qadriyatlarning bola uchun muhimligini ta’kidlash imkonini beradi.

“Sohildagi Kafka” romaniga murojaat qilish muayyan vaziyatlarda muallif konseptlarining ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va tushunish, shuningdek, ularni qahramonlarni tavsiflashning asosiy bazasi sifatida aniqlash imkonini beradi. “Sohildagi Kafka” romanining konseptual tahlili Kafka Tamura va Oshimaga nisbatan “personaj konsepti” terminini qo‘llashning asosli va samarali ekanligini ishonchli tarzda ko‘rsatadi. Tarjimonlar S. va I. Logachyovlar “kokoro/sinsin” majmuasining keng “ma’nolar” palitrasini narrativga kiritadilar, bu, birinchidan, mazkur personajlarni tavsiflash, ikkinchidan, ularning musiqa va adabiyot olamiga sho‘ng‘ishini asoslash, uchinchidan esa bayonning mistik qatlamini izohlashga xizmat qiladi.

Tarjimonlar “yurak” va “ruh” konseptlarini vaziyatga qarab farqlaydilar, chunki “yurak” sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan emotsiya yoki reaksiyani ko‘proq moddiy tarzda aks ettiradi. Haruki Murakami Kafka Tamura otasini o‘ldirganini anglaydigan vaziyatni yaratadi: *「心臓の鼓動が激しくなり、なかなかもとに戻らない」[Shinzō no kodō ga hageshiku nari, nakanaka moto ni modoranai]*[56]*. “Yurak telbadek urardi va hech ham tinchimay qo‘ymasdi”*[57].

Mazkur bobning to‘rtinchi bo‘limida “Haruki Murakami “1Q84” trilogiyasida “San’at” freymi modelining tarkibiy qismi sifatida “kitob” konseptining voqelanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Haruki Murakamining “1Q84” trilogiyasi an’anaviy ravishda fantastik va realistik bayonning uyg‘unligini ifodalaydi, jumladan, real va fantastik makonning yaratilishini (ikki oy, jonlangan 1Q84 olami) o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, yozuvchining butun ijodi orqali qizil chiziq kabi o‘tuvchi individual-mualliflik “kitob” konsepti ham muhimdir; mazkur muallif romanlarining barcha qahramonlari mutolaa qiladi, boy kitob olami trilogiya qahramonlarining deyarli barchasiga ochiqdir. Ta’kidlash lozimki, qahramonning nihoyatda keskin yoki tushkun psixologik holatini yozuvchi kitob bilan aloqa qila olmaslik orqali ifodalaydi – “o‘qishning imkoni bo‘lmay qoladi”.

---

[54] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.272.
[55] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.220.
[56] 村上春樹「海辺のカフカ」（上）– Japan: Haruki Murakami, 2002.- P.75.
[57] Харуки Мураками. Кафка на пляже. – М.: Эксмо, 2005. – С.66.

Mazkur matnda «kitob» konseptining markaziy verbal reprezentanti sifatida “Havo pillasi” romani namoyon bo‘ladi. Uning ko‘p funksiyaliligini, avvalo syujet hosil qiluvchi funksiyasidan boshlab ta’kidlaymiz. Fukaeri tomonidan yozilgan va Tengo tomonidan badiiy asar shakliga keltirilgan roman butun trilogiyaning fantastik bayonining bir qismi; muharrirning kasbiy mahorati mahsuli; “Avangard” faoliyati haqidagi hikoya va boshqalar hisoblanadi. Haruki Murakami “Havo pillasi” romanini trilogiyada syujet bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan personajlarning paydo bo‘lishi uchun motivatsion sabab sifatida kiritadi, ularning kitobga bo‘lgan reaksiyasi orqali yoki Aomamening homiladorligiga fantastik izoh sifatida (uning 1Q84 olamiga kirib qolishining qonuniyligi) foydalanadi. “Havo pillasi” romani trilogiya boblarini birlashtiruvchi kompozitsion ahamiyatga ega bo‘lib, muallif ularni qahramonlar nomlari bilan ataydi. Roman aniq xronologiyaga ega bo‘lganligi sababli, unga qahramonlar bilan asta-sekin tanishish va mazmunning tobora batafsillashib borishi ham bo‘ysunadi.

Uchinchi bobda “**Ko‘p darajali “San’at” freymi modelining narrrativ xususiyatlari va uning badiiy makonda voqelanish usullari**” quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi: Haruki Murakami romanlarida narrativ tuzilmani modellashtirishning kognitiv xususiyatlari hamda uning obrazli-estetik mazmunni yaratishdagi roli, “ijod” konseptining “San’at” freymi tarkibiy qismi sifatida personaj submatnida reprezentatsiyalanish xususiyatlari (“1Q84” trilogiyasi materiali asosida), “rassom” personaj konseptining “San’at” freymi tarkibiy qismi sifatida “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasidagi funksion-semantik xususiyatlari, shuningdek, “kartina” ko‘p funksiyali konseptining etnokonsept va “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasi kompozitsion tuzilmasining elementi sifatida voqelanish xususiyatlari.

“Ijod” konseptining “San’at” freymi tarkibiy qismi sifatida “personaj submatni”da reprezentatsiya xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida (“1Q84” trilogiyasi materiali asosida) quyidagi qonuniyatlar aniqlangan. Haruki Murakami qahramonlarni, ayniqsa Tengoni tavsiflashda “Kokoro” konseptidan keng foydalanadi. Muallif mantiqiga amal qilgan holda, konseptlarning psixologik ahamiyati boblar nomlarida va tarjimada ifodalanadi. Shunday qilib, roman “1Q84” ning birinchi jildidagi 11-bob *「肉体こそが人間にとっての神殿である」[Nikutaikoso ga ningen ni totte no shinden de aru]* “Tana – ruh uchun ibodatxona” deb nomlanadi. Ikkinchi jildning ikkinchi bobi esa *「魂のほかには何も持ち合わせていない」[Tamashii no hoka ni wa nani mo mochiawasete inai]* “Ruhdan boshqa hech narsa yo‘q” deb ataladi.

「心」 “Kokoro” konsepti butun trilogiya matnida 223 marta uchraydi, D.Kovalenin semantika bilan tanlab ishlaydi, rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchining mentalitetini va “ruh/yurak” ma’nosining ajralishini hisobga oladi. Misol sifatida trilogiyaning Tengo/Aomame syujet liniyasida qahramonlarning psixologik holati yoki bayonning “mistik qatlam”i yaratiladigan sahifalarni ajratib ko‘rsatamiz.

“Yurak” konsepti fiziologik organ sifatida o‘z parametrlariga va mustahkamlangan funksiyalariga ega bo‘lib, efemer “ruh”ga nisbatan ko‘proq “moddiy”dir: yurak seziladigan, og‘rishi, qattiq urishi, tezlashishi, siqilishi va hokazolar bilan tavsiflanadi. Aomame o‘n yoshli Tengoni eslar ekan, o‘z holatini shunday ifodalaydi: *「心の激しい震えが残る」[Kokoro no hageshii furue ga*

nokoru][58]. *"Shunda yuragim qanday titragan edi"*[59]. "1Q84" romanining mazkur fragmentida yapon originali va ruscha tarjimaning qiyosiy tahlili *「心」* konseptining turli lingvomadaniy manzaralarda reprezentatsiya qilinish xususiyatlarini namoyon etadi. Yapon matnidagi *「心の激しい震えが残る」* ifodasi abstrakt *「心」* konsepti hamda "kuchli titroq" *[激しい震え]* dinamik obrazi uyg'unligida qurilgan. Haruki Murakami badiiy tizimida *「心」* leksemasi sinkretik tabiatga ega bo'lib, "yurak", "ruh", "his-tuyg'u" va "ichki ong" ma'nolarini birlashtiradi. Shu bois Aomamening emotsional holati personaj xotirasida saqlanib qoluvchi chuqur ichki kechinma sifatida reprezentatsiya qilinadi. *「残る」* "saqlanib qolmoq", "iz qoldirmoq" fe'li esa davomiylik va emotsional iz semantikasini yanada aktuallashtiradi.

Ruscha tarjimada - «Как задрожало при этом сердце» - original konseptning konkretlashuvi va fiziologizatsiyasi kuzatiladi. Tarjimon ko'p ma'noli *「心」* leksemasini "serdtse/yurak" birligi bilan almashtiradi, natijada emotsional holat yanada jismoniy va hissiy qabul qilinadigan xarakter kasb etadi. Shu bilan birga, tarjimada *「残る」* fe'li ifodalagan kechinmaning saqlanib qolish semantikasi reduksiyaga uchraydi, buning oqibatida uzoq davom etuvchi emotsional ta'sir jihati zaiflashadi.

Adabiy nuqtai nazardan original matn ichki psixologik refleksiya va emotsional tajribani kognitiv holat sifatida reprezentatsiya qilishga yo'naltirilgan. Ruscha tarjima umumiy emotsional invariantni saqlab qolgan holda obrazning ekspressivligi hamda jismoniy-psixologik konkretligini kuchaytiradi. Demak, yapon matnida *「心」* konsepti personaj badiiy ongining ko'p qatlamli elementi sifatida namoyon bo'lsa, tarjimada uning emotsional-fiziologik interpretatsiyasi ustuvorlik kasb etadi.

Tengo psixologik tipi jihatidan Aomamega yaqin bo'lib, uning hatto muhabbatda ham yolg'izligi Haruki Murakami tomonidan "yurak" konsepti orqali metaforik tarzda ifodalanadi: *「心の部屋のいくつかをしっかり閉め切っておかなくてはならなかった」[Kokoro no heya no ikutsuka o shikkari shimekitte okanakute wa naranakatta]*[60]. *"Yuragimdagi ayrim xonalarni qulflab qo'yishga majbur edim"*[61]. Ushbu metafora tarjimada qahramon xarakteriga mos ravishda adekvat aks etadi. Haruki Murakami Tengo obrazini mulohazali, kitobxon, matnni nozik his eta oladigan, yozuvchi sifatida, suhbatdoshni nigoh yoki imo orqali anglay oladigan shaxs sifatida yaratadi. Bunga D. Kovalenin tarjimasi qanday urg'u berishini quyidagi misolda ko'ramiz. Masalan, Sensey huzuriga borish Tengoni bezovta qiladi, Fukaeri esa uning holatini sezadi: *「天語の心にある何かを、ふかえりはその手のひらから吸い取り感じ取っているかもしれないが、天語にふかえりの心が読めるわけではない」[Tengo no kokoro ni aru nanika o, Fukaeri wa sono te no hira kara suitorikanjitoru ka mo shirenai ga, Tengo ni Fukaeri no kokoro ga yomeru wake de wa nai]*[62]. *"...balki qiz uning kaftlari orqali Tengoning yuragidagi nimanidir*

[58] 村上春樹「IQ84」（Book 2,2）– Japan: Haruki Murakami, 2009. – P.144.
[59] Харуки Мураками. IQ84. -М.: Эксмо, Кн.2, 2011. – С.100.
[60] 村上春樹「IQ84」（Book 2,2）– Japan: Haruki Murakami, 2009. – P.169.
[61] Харуки Мураками. IQ84. -М.: Эксмо, Кн.2, 2011. – С.116.
[62] 村上春樹「IQ84」（Book 1,1）– Japan: Haruki Murakami, 2009. – P.264.

sezgandir, biroq uning o‘zi Fukaerining ruhini o‘qiy olmasdi”[63]. Asl matnda bu yerda 「心」 – “yurak” ishlatilgan. Ta’kidlash lozimki, “Kokoro”ning milliy tarkibiy qismiga “aql” ham kiradi. Shubhasiz, tarjimonning nozik didi uchun (Fukaerining aqlini sezdi) bunday ifoda hatto mantiqiy jihatdan ham mos kelmaydi, biroq “ruh/yurak” juftligi Tengo reaksiyasini uyg‘un tarzda ifodalaydi. Bizningcha, “Kokoro” konseptining qo‘llanilishi bayonda mistik va “real” qatlamlar o‘rtasidagi chegarani yumshatadi hamda Tengoning psixologik tipini, uning “Havo kokoni”ni tushunish va qayta ishlash qobiliyatini izohlaydi.

Haruki Murakamining “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasida (2017 yil) ilk bor yangi personaj – rassom paydo bo‘ladi va bayon aynan uning nomidan olib boriladi. Mazkur dilogiyani “tasviriy san’at” freymi bilan bog‘liq konseptlar: portret, yevropa va nihonga uslubidagi kartina, fon, tasviriy texnika va boshqalar orqali tahlil qilish mumkin. Shulardan biri – tez-tez uchraydigan “portret” konsepti alohida ajratiladi, u rassomning kasbiy tavsifida muhim o‘rin tutadi hamda syujet rivojida motivatsion vektor hosil qiladi (Mensiki va Mariye bilan uchrashuv). Muallif rassomning ijodiy jarayoni muhitini yaratadi, bu jarayon yozuvchining o‘z intellektual didiga – “kitob o‘qish va musiqa”ga yaqin turadi. Haruki Murakami mavzuga shu qadar chuqur kirib boradiki, uning mualliflik ongi portret yaratish, kartinani idrok etish jarayoni bilan hamohang ishlaydi, tashqi kuzatuvchi uchun rassomning professional modeli shakllantiriladi, uning konseptual dunyo manzarasi esa badiiy (fiktsional) matn manzarasiga o‘xshash bo‘lib, u faqat turli vositalar va voqelanish shakllari orqali bilvosita o‘rganilishi mumkin.

Haruki Murakami rassomning portret ustida ishlashining barcha bosqichlarini, uning ijodiy izlanishlari va kasbiy “sir”larini ko‘rsatadi. Ishni boshlash va portretning ohangini belgilashda emotsional kayfiyat muhim ahamiyatga ega, shuning uchun yozuvchi kelajakdagi rafiqasi Yudzuga bo‘lgan uchrashuv epizodini keltiradi, bunda oshiq rassom restoranda desert berilishidan oldin uning portretini tezda chizib qo‘yadi: *「目は顔の重要なパーツ...その瞳の奥には時を超えた広大な世界が広がっていた」[Me wa kao no jūyō na pātsu… sono hitomi no oku ni wa toki o koeta kōdai na sekai ga hirogatte ita]*[64]. *“Ko‘zlar – yuzning muhim qismi… Bu ko‘zlarning tubida vaqt chegarasidan tashqaridagi cheksiz olam ochilardi”*[65].

Rassomning barcha assotsiatsiyalari bayonning emotsional ohangini belgilaydi. Portret yaratish jarayoni, Rassomning Menshiki bilan uzoq va ishonchli suhbatlari bayonning mistik qismiga o‘tish – quduq siri va Komandorning paydo bo‘lishi uchun motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Haruki Murakamida Menshiki portretini yaratish jarayoni – bu ijodiy ong jarayoni, haqiqat lahzasini bilvosita yoki assotsiativ tarzda ajrata oladigan ustaning mehnatidir. Menshiki portreti ustidagi ishni yakunlash vaziyati Haruki Murakami tomonidan yoritish rakursiga bevosita bog‘liq holda bir necha bosqichda tasvirlanadi: *「免色さんの「骸骨」を、私が作ったいくつかの色合いでしっかりと包み込みました。彼の黒い輪郭は黒い陰に隠れています」[Menshiki-san no ‘gaikotsu’ o, watashi ga tsukutta ikutsuka no iroai de shikkari to tsutsumikomimashita. Kare no*

[63] Харуки Мураками. IQ84. -М.: Эксмо, Кн.1, 2011. – С.186.
[64] 村上春樹「『**騎士団長殺し**』きしだんちょうごろし」（第 1 部）– Japan: Haruki Murakami, 2017. - P33.
[65] Харуки Мураками. Убийство командора. Книга 1 «Возникновение замысла». – М.:Эксмо, 2019. – С.36.

kuroi rinkaku wa kuroi kage ni kakurete imasu][66]. *"Ustaxona derazasidan quyosh nurlari sokin oqib kirardi… Menshikining "skeleti" men yaratgan bir necha rang ohanglari bilan mahkam o'ralgan edi. Uning qora konturi endi qora soyalar ortiga yashiringan"* [67] . Romanning mazkur fragmentida yapon originali va ruscha tarjimaning qiyosiy tahlili rassom ijodiy ongining reprezentatsiya qilinish xususiyatlarini ochib beradi. Yapon matnida *「骸骨」* ("skelet") leksemasi Mensikining ichki mohiyati metaforasi sifatida funksiyalanadi, *「しっかりと包み込みました」* konstruksiyasi esa rang va soya vositasida obrazni badiiy modellashtirish jarayonini aktuallashtiradi. *「黒い」* ("qora") leksemasining takror qo'llanilishi personaj konturlarining soya ichida erib ketishi effektini hosil qilib, yashirinlik va noaniqlik semantikasini kuchaytiradi.

Badiiy "portret" konsepti an'anaviy ma'noda tasvir hisoblanmaydi. Bizningcha, Haruki Murakami verbal tarzda "portret-taassurot" yaratish vazifasini qo'ygan: *「適当な筆を選び、何も考えずに大胆かつ自由な筆致で絵の具を厚くキャンバスに塗り込んだ...そこには免色という男がいた...絵の中に存在していた」[Tekitō na fude o erabi, nani mo kangaezu ni daitan katsu jiyū na hichī de enogu o atsuku kyanbasu ni nurikonda… soko ni wa Menshiki to iu otoko ga ita… e no naka ni sonzai shite ita]*[68]. *"…mos cho'tkani tanladim va hech narsani o'ylamasdan, jasur va erkin zarbalar bilan bo'yoqni qalin qilib tuvalga surtib chiqdim… unda Menshiki ismli odam bor edi… u go'yoki kartinaning ichida mavjud edi"*[69].

Rassomning mulohazalari «portret» badiiy konseptining semantik yaxlitligiga kiradi, u "obraz", "yechim kaliti" kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, Haruki Murakamining "Komandorni o'ldirish" dilogiyasida "portret" badiiy konsepti murakkab hodisa ekanligi haqida xulosa qilish mumkin, u ko'plab vazifalarini bajaradi: motivatsion, syujet hosil qiluvchi (mistik qatlamga o'tish), rassom ijod jarayonining indikatori hamda uning kasbiy tavsifi hisoblanadi.

XULOSA

1. Haruki Murakamining ijodiy va hayotiy tajribasi, shuningdek, uning intellektual preferensiyalari asarlarda "adabiyot", "musiqa" va "tasviriy san'at" konseptlari orqali namoyon bo'lib, ular "San'at" freymi tarkibiga kiruvchi dominant konseptlar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur konseptlarning reprezentatsiyasi ham uzual, ham individual-mualliflikka xos bo'lib, yaqqol subyektiv xarakter kasb etadi. Yozuvchining kognitiv bazasi umumiy madaniy bilimlar bilan bir qatorda ijodiy kognitiv kompetensiyalar, individual kasbiy tajriba, ijod obyekti mohiyatini chuqur o'zlashtirish hamda professional badiiy jarayonga integratsiyalashganlikni ham qamrab oladi. Bu esa "ijodiy ong" tushunchasini Haruki Murakami romanlarini kognitiv tahlil qilishning muhim nazariy-metodologik asosi sifatida talqin etish imkonini beradi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, tahlil qilingan asarlarda "adabiyot" konsepti yapon klassik va

[66] 村上春樹「『**騎士団長殺し**』きしだんちょうごろし」（第 1 部）– Japan: Haruki Murakami, 2017. - P.221.
[67] Харуки Мураками. Убийство командора. Книга 1 «Возникновение замысла». – М.:Эксмо, 2019. – С.227-228.
[68] 村上春樹「『**騎士団長殺し**』きしだんちょうごろし」（第 1 部）– Japan: Haruki Murakami, 2017. - P.226.
[69] Харуки Мураками. Убийство командора. Книга 1 «Возникновение замысла». – М.:Эксмо, 2019. – С.232.

zamonaviy adabiyoti, Amerika hamda rus adabiyoti segmentlarini, shuningdek, “kitob” konseptini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasida “Tasviriy san’at” konseptining semantik jihatdan ahamiyatli segmenti sifatida “nihonga uslubidagi milliy kartina” alohida o‘rin egallaydi.

2. Haruki Murakami badiiy olamida “San’at” freymi yozuvchining estetik preferensiyalari hamda ijodiy qiziqishlari bilan shartlangan individual-aksiologik idrok xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Struktur jihatdan mazkur freym “adabiyot”, “musiqa” va “tasviriy san’at” kabi tayanch konseptlar orqali reprezentatsiya qilinadi. Ushbu konseptlar va ularning subyektlari tahlili muallif tomonidan yaratilgan o‘zaro bog‘liqliklar tizimini aniqlash, shuningdek, badiiy matnning semantik va kompozitsion yaxlitligini ta’minlovchi mexanizmlarni ochib berish imkonini yaratadi. Mazkur yondashuv Haruki Murakami asarlarining kognitiv tahlili uchun samarali hisoblanadi, chunki u tematik jihatdan determinatsiyalangan konseptlarni aniqlash hamda ularning tadqiq etilayotgan freymning asosiy slotlari bilan o‘zaro aloqadorligini belgilash imkonini beradi.

3. “Kategoriyalash va konseptualizatsiya” muammosi ijodiy ongni o‘rganishda kognitiv adabiyotshunoslikning birlamchi vazifasi hisoblanadi, bunda freym badiiy matnni tahlil qilishda maksimal darajada umumlashtirilgan va shu sababli turli xil axborotni ifodalovchi universal tizim sifatida namoyon bo‘ladi, hamda uning muayyan tuzilmasi mavjudligini nazarda tutadi.

4. “Kitob” konsepti Haruki Murakamining “1Q84” trilogiyasida aks ettirilgan muallif ongining ko‘rsatkichi, qahramonlarning intellektual darajasining tavsifi hisoblanadi. “Havo kokoni” kitobining ko‘p funksiyaliligi Haruki Murakami narrativi xususiyatlarini, uning fantastik bayonga moyilligini namoyon etadi, bunda mazkur konsept syujet sirlarini ochuvchi kalit va reallik bilan bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

5. Haruki Murakami ijodining ikkinchi va uchinchi davri asarlarida ma’lum qonuniyat kuzatiladi, bu esa tadqiqotimizni (freym tahlili metodini) mantiqan asoslaydi va badiiy matnda muallif ongining yorqin markerlarini ochib beradi. Bularning barchasi “San’at” freymiga kiruvchi individual-mualliflik “musiqa” va “adabiyot” konseptlari orqali ifodalanadi.

— Muayyan kuy yoki musiqiy asar butun badiiy matn davomida uzluksiz va intellektual mazmunga ega element sifatida namoyon bo‘ladi.

— Haruki Murakami qahramonlari yolg‘izlikni sevadi va ruhiy inqiroz davrida “ko‘z yetgan tomonga” tamoyili asosida uzoq yakka sayohatlarga chiqadi.

— “Norveg o‘rmoni” romanida qahramonning intellektual mashg‘uloti sifatida “kitob o‘qish va musiqa tinglash” iborasi bir necha bor takrorlanadi. Bu Haruki Murakami romanlari qahramonlari uchun umumiy xususiyat hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, muallif doimo qahramonni o‘zining musiqa va adabiyotga bo‘lgan intellektual qiziqishlariga yaqinlashtiradi.

6. Haruki Murakami tadqiq etilayotgan romanlarda “personaj submatni”ga individual intonatsiya berish, o‘zi uchun muhim bo‘lgan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish maqsadida kursivdan foydalanadi, chunki asarning originalida kursiv emotsional axborotni yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Shu orqali muallif qahramonlar nutqining intonatsion xususiyatlarini ifodalaydi. Kursiv qahramonlarning qaysi so‘zlarga alohida e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi va bayon etuvchi tomonidan

retsipientga yetkazilmoqchi bo‘lgan ma’lumotni adekvat talqin qilishga yordam beradi.

7. Haruki Murakamining “1Q84” trilogiyasida alohida turdagi narrativ model yaratilgan bo‘lib, u Tengo va muharrir Komatsu o‘rtasidagi “Havo pillasi” romanini takomillashtirishga oid professional dialoglar, ijod haqidagi tasavvurlarni ifodalovchi Tengoning ichki monologlari hamda mualliflik izohlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur narrativ qatlamlarning uyg‘unlashuvi asarning badiiy olamiga xos ko‘p o‘lchovli manzarani shakllantiradi va uni talqin qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Asosan uchinchi shaxs nomidan hikoya qilish shaklida amalga oshirilgan mualliflik strategiyasi turli perseptiv fokuslarning almashinuvi natijasida birinchi shaxs narrativining transformatsiyasi belgilarini namoyon etadi. Bayonning politsentrik tashkil etilishi personajlarning psixologik tiplari, nutqiy xulq-atvori, leksik xususiyatlari va temperamentidagi farqlarni aniq ifodalash imkonini beradi. Personaj submatnlarining ko‘p qatlamliligi ichki monolog imitatsiyasi, ko‘chirma nutq hamda qahramonlarning dialogik replikalari orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Tengo personaj-konsepti trilogiyaning syujet-kompozitsion tuzilishida markaziy o‘rin egallab, “ijod” badiiy konseptini reprezentatsiya qilishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

8. “Komandorni o‘ldirish” dilogiyasining birinchi kitobi - “G‘oyaning paydo bo‘lishi” - portret ustida ishlashning izchil bosqichlari orqali badiiy ijod jarayonini yoritib beradi hamda shu asosda Rassom obrazini asarning markaziy figurasi sifatida shakllantiradi. Haruki Murakami talqinida “portret” konsepti an’anaviy tasviriy san’at doirasidagi tasvir bilan cheklanmay, verbal vositalar orqali yaratiladigan o‘ziga xos “taassurot-portret” xususiyatini kasb etadi. Dilogiya tuzilmasida mazkur konsept murakkab va ko‘p funksiyali kognitiv tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi: u motivatsion hamda syujet hosil qiluvchi funksiyalarni bajaradi, narrativning mistik qatlamga o‘tishiga xizmat qiladi, shuningdek, ijodiy jarayonning indikatori hamda rassomning kasbiy shakllanishini ifodalovchi muhim tavsifiy komponent sifatida gavdalanadi.

9. Haruki Murakami yapon an’anaviy tasviriy san’ati imkoniyatlarini chuqur bilishini namoyon etib, “nihonga” uslubidagi “Komandorni o‘ldirish” kartinasini nafaqat “San’at” freymi tarkibiy qismi, balki butun dilogiyaning syujet va tuzilma hosil qiluvchi elementi sifatida kiritadi.

10. Haruki Murakami asarlarining rus tiliga qilingan tarjimalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tarjimonlar badiiy matnning mazmuniy-g‘oyaviy hamda obrazli qatlamlarini, adekvat tarzda qayta yaratishga erishgan bo‘lib, bu yozuvchi mualliflik ongining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Murakami asarlarida “yolg‘izlik”, “sinsin” va “kokoro” konseptlari alohida ahamiyat kasb etib, ular muallif badiiy olamining asosiy komponentlarini aks ettiradi. Rus tiliga tarjima jarayonida yapon milliy-madaniy manzarasi va uning o‘ziga xos konseptual xususiyatlarini ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, tarjimon D. Kovalenin boshqa madaniyat vakillariga yapon milliy madaniyatiga xos “sinsin” va “kokoro” konseptlarini obrazli yetkazishga intilgan. Biroq yapon milliy madaniyatiga xos “ruh”, “yurak”, “ong” kabi konseptlarning moddiy va ma’naviy bog‘liqligini ifodalashda ayrim kamchiliklar namoyon bo‘ladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

БАКАЕВА НИЛЮФАР АБДУЛЛОЕВНА

ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ФРЕЙМА «ИСКУССТВО» В РОМАНАХ ХАРУКИ МУРАКАМИ (на материале японских текстов романов автора и их русских переводов)

10.00.06 – Сравнительное литературоведение и переводоведение

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.2.PhD/Fil3468.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Сафаров Шахриёр Сафарович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Умурова Гузал Хотамовна** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Халмурзаева Надира Ташмурзаевна доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Джиззакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «23» октября 2026 года в 12^{00} часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 65977). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «10» октября 2026 года.
(Протокол реестра рассылки за № 52 от «10» октября 2026 года)

Б.А. Холиков
Председатель Научного совета по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёной степени, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном языкознании и литературоведении расширяются возможности когнитивного подхода к исследованию процессов восприятия, обработки и хранения информации и знаний в сознании человека. Особое внимание уделяется изучению структуры и содержания таких когнитивных единиц, как фрейм и концепт, а также выявлению особенностей их репрезентации и реализации в художественном тексте. Несмотря на наличие значительного числа научных исследований, в которых фрейм рассматривается как структура знания и средство его репрезентации, недостаточно изучены особенности его моделирования в художественном тексте во взаимосвязи с индивидуальными знаниями писателя, его концептуально-семантической позицией и культурным кодом, системная реализация структурных слотов фрейма, а также его функционирование в качестве маркера авторского сознания. В связи с этим особую актуальность приобретает выявление механизмов моделирования и реализации фрейма в творческой деятельности писателя, определение функциональных особенностей когнитивных структур, входящих в состав фрейма, на основе интерпретации художественного текста как модели авторского сознания, а также когнитивная интерпретация информации, репрезентированной в художественном произведении.

В мировом языкознании последовательно развиваются исследования, посвящённые семантике фрейма, вопросам его выявления и интерпретации. В условиях усиления антропоцентрического подхода особое внимание уделяется изучению семантико-когнитивных особенностей фреймов в художественном тексте, в частности индивидуально-авторских фреймов, отличающихся неожиданностью, новизной и высокой степенью экспрессивности. Несмотря на то, что в существующих исследованиях художественный фрейм преимущественно трактуется как когнитивная структура, систематизирующая знания и репрезентирующая определённые ситуации, недостаточно комплексно раскрыта его взаимосвязь с индивидуально-авторским мышлением, концептуальным миром автора и процессом формирования художественной реальности, а также функциональные особенности слотов, входящих в структуру фрейма, в процессе формирования содержания текста. В связи с этим моделирование индивидуально-авторских фреймов, выявление их семантической структуры и составляющих слотов, определение механизмов реализации фрейма в художественном тексте, а также раскрытие его когнитивно-семантического потенциала в создании новой художественной реальности приобретают особую актуальность и рассматриваются как одно из приоритетных направлений современных исследований в области языкознания и когнитивного литературоведения.

В настоящее время в Новом Узбекистане в ведущих мировых научных центрах проводятся научно-практические исследования направленных на когнитологии, нарратологии, текстопорождения, нейролингвистики,

исследований языковой и художественной картины мира, проблем в изучении авторского сознания писателя а также, особое внимание уделяется вопросу о том, каким образом художественный (индивидуально-авторский) фрейм встраивается в контекст художественного произведения и какую функцию выполняет по отношению ко всему произведению. «Наука и просвещение имеют первостепенное значение для повышения интеллектуального и духовного потенциала не только молодежи, но и всего нашего общества. Там, где не развивается наука, наблюдаются регресс, отсталость общества во всех сферах. Стремление овладевать современными знаниями, быть просвещенными и обладать высокой культурой должно стать для всех нас жизненной потребностью» [70]. Исходя из указанных задач, одним из актуальных направлений современных научных исследований является изучение художественного фрейма на основе когнитивно-фреймового анализа, выявление взаимосвязи между языковыми единицами и когнитивными структурами в рамках фреймовой модели, а также раскрытие механизмов реализации индивидуально-авторского фрейма в художественном тексте и его функций в репрезентации авторского сознания.

